



XORAZM MAQOMLARINING TALABALARGA O'RGATISH USULLARI

O'giloy Xolmurodovna Ramazonova

Buxoro davlat universiteti "Musiqqa ta'limi Kafedrası o'qituvchisi

Shaxzod Saidaxmedov

12-1 vokal 21 guruh talabasi

Annotasiya: *Xorazm maqomlarining dutor, surnay yo'llari ham mavjud. Mas, 19—20-asr boshlarida Xivada 11 ta Xorazm dutor maqomi mashhur bo'lgan: Chapandoz, Navoiy, Sadri Iroq, Tashniz, Ag'yor va boshqa Tanbur yo'llaridan farqli o'laroq ular turkumli asarlar bo'lib, har bittasi 2—7 qism (mas, "Iroq" dutor maqomi "O'rta ufori", "Nigoron", "Oromijon", "Boymuxammad", "Saklansin") dan iborat bo'lgan. "Oraz bam va uforisi", "Majnun dali", "Roviy", "Miskin va uforisi", "Mo'g'ulcha ufori"lari M. Yusupov tomonidan "O'zbek xalq muzikasi"ning 6jildiga kiritilgan.*

Kalit so'zlar: *Nigoron, Oraz, Oromojon, Ufor, Boymuxammad, Miskin, Dutor, nay, bo'lamon qo'shnay, g'ijjak, chang, tanbur.*

Xorazm maqomlarining bizgacha yetib kelgan shakli — olti maqom (Rost, Buzruk, Navo, Dugoh, Segoh, Iroq) tizimi Shashmaqom asosida XIX-asr boshlarida shakllangan. Har bir maqom belgilovchi omil — muayyan lad tizimi va uning asosida yuzaga kelgan kuy yo'llaridan iborat. Xorazm maqomlari Buxoro Shashmaqomi kabi mustaqil tuzilishga ega bo'lgan chertim (cholg'u) va aytim (ashula) bo'limlarini o'z ichiga oladi. Buxoro maqomlarining ketma-ketligi (Buzruk, Rost, Navo, Dugoh, Segoh, Iroq) dan iborat Chertim yo'li (bo'limi) tani maqom, tarje, peshrav, muxammas, saqil, ufar kabi shaklan yakunlangan va nisbiy mustaqil qismlardan tashkil toptan. Boshlang'ich tani maqom va yakunlovchi ufar har bir maqomda bittadan bo'lsa, o'rtada keladigan peshrav, muxammas, saqil 2—3 tagacha bo'ladi. Cholg'u yo'li yakkanavozlik va jo'navozlik usulida chalinadi. Yakkanavozlikda tanbur asosiy soz hisoblanadi. Jo'navozlik, odatda, tanbur, dutor, nay, bo'lamon, qo'shnay, g'ijjak, chang, doiradan iborat ansamblda amalga oshiriladi.

Shuningdek, Xorazm maqomlarining dutor, surnay yo'llari ham mavjud. Masalan: XIX—XX-asr boshlarida Xivada 11 ta Xorazm dutor maqomi mashhur bo'lgan: Chapandoz, Navoiy, Sadri Iroq, Tashniz, Ag'yor va boshqa Tanbur yo'llaridan farqli o'laroq ular turkumli asarlar bo'lib, har bittasi 2—7 qism (masalan: "Iroq" dutor maqomi "O'rta ufori", "Nigoron", "Oromijon", "Boymuxammad", "Saklansin") dan iborat bo'lgan. "Oraz bam va uforisi", "Majnun dali", "Roviy", "Miskin va uforisi", "Mo'g'ulcha ufori"lari M. Yusupov tomonidan "O'zbek xalq muzikasi"ning 6jildiga kiritilgan.

Aytim yo'li tani maqom, "Talqin", "Nasr" kabi asosiy qismlar — sho'balar va ular negizida tuzilgan tarona, suvora, naqsh, faryod va ufar deb nomlangan variant qismlardan tashkil topadi. Dastlab Xorazm maqomlari ijrosida fors-tojik (Hofiz, Jomiy kabi) va keyinchalik uzbek, ozar mumtoz shoirlari (Navoiy, Fuzuliy, Munis, Ogahiyar) ning g'azallaridan foydalanilgan.

Xorazm maqomlari va Buxoro Shashmaqomining umumiy va farq qiluvchi tomonlari mavjud. Tashqi tomondan Xorazm maqomlari Rostdan, Shashmaqom Buzrukdan boshlanadi. Xorazmda Iroqning ashula bo'limi unutilgan, Rost maqomining chertim yo'llari asosida 8 qismdan iborat



Panjgoh turkumi yaratilgan; suvora, naqsh, faryod qismlari o'ziga xos xususiyatlarga ega; savt va mo'g'ulcha kabi 2guruh sho'balari uchramaydi. Ichki tuzilishi jihatidan ko'pchilik doyra usullari, kuy qiyofasi, ijrochilik uslubi mustakilligi bilan ajralib turadi.

Xorazm maqomlari Komil Xorazmiy ixtiro qilgan tanbur chizig'ida uning o'zi va o'g'li Muhammad Rasul Mirzaboshi tomonidan to'la yozilgan (1886). Hozirgi nota yozuvida E. Romanovskaya chertim yo'llarini ("Xorazm klassik muzikasi", T., 1939) va M. Yusupov chertim va aytim yo'llarini ("O'zbek xalq muzikasi", 6jild., T., 1958) yozib olgan. M. Yusupov tomonidan keyinchalik nashrga tayyorlangan "Xorazm maqomlari" to'plamiga (T., 1980—1987) Xorazm mumtoz musiqasining boshqa janrlari (suvora, faryod kabi) namunalari ham kiritilgan. E. Romanovskaya, Ilyos Akbarov tomonidan Matyoqub Xarratov tanburda ijro etgan ayrim parchalar fonografga yozilgan (1934). San'atshunoslik intida K. Otaniyozov va K. Ismoilovlardan Rost, Navo, Dugoh, Segoh (1949), H. Boltayevdan Buzruk (1952) makomlarining ashula yo'llari magnit lentasiga yozib olingan.

Xorazm maqomlari ijrochiligining yirik namoyandalari: Niyozjonxo'ja, Komil Xorazmiy, Feruz, Xudoybergan muhrkan, Matyoqub va Matyusuf Xarratovlar, M. Xudoyberganov, K. Otaniyozov, H. Boltayev, M. Raximov, N. Yusupova, M. Yusupov, R. Jumaniyozov va boshqalar yirik namoyondalar qatoridan o'rin egallaganlar.

Xorazm maqom maktabi azaldan o'z ijrosi va sho'xchanligi bilan boshqa maqom yo'llari ijrochilik maktablaridan ajralib turadi. O'ziga xos joziba hali hanuzgachamaqom shinavandalarini o'ziga mahliyo qilib kelmoqda. Nafaqat respublikamiz shinavandalari, balki butun dunyodan tashrif buyurayotgan sayyohlarni ham o'z bag'riga qamrab olmoqda. Xorazm maqomlarining kuy-ohanglari butun dunyo sahnalarida taralib turibdi. Biz ham talabalarga xorazmning asl maqom yo'llarini to'laligicha o'rgatib, targ'ib qilib borishimiz kerak, chunki yoshlarimiz bizning kelajagimizdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'g'iloy Ramazonova. An'anaviy xonandalik va hofizlik san'ati. Pedagogik mahorat. Maxsus son. 2021. 38-40-b.
2. U.R. Kholmurodovna. FORMATION OF PUBLICISTIC PERFORMING SKILING IN SINGING. Web of Scientist: International Scientific Research Journal 1 (01),36-40, 2021
3. D.Yu. Ruziev. Ways Of Working ON Musical Compositions. The American Journal of Social Science and Educasion Innovations 3 (01),436- 440, 2021
4. Ro'ziyev D.Yu. Musiqiy ijrochilik mahorati. Pedagogik mahorat. 6-son, 2019. 260-263-b.
5. Ro'ziyev D.Yu. Ansambl ijrochiligida obrazli musiqiy tafakkurni shakllantirish. Pedagogik mahorat. Maxsus son. 2021. 11-15 bet.
6. У.Х. Рамазонова. МЖ Эсанова. Подготовка молодых певцов к ансамблевому выступлению. Наука, техника и образование, 88-91, 2021.
7. Ў.Х.Рамазонова. Талабаларда маънавий-ахлоқий тушунчаларни шакллантириш, гуруҳ билан ишлаш ва уни бошқариш тамойиллари. Scientific progress 1 (5), 2021.
8. Ramazonova U. H., Muhamadova M. THE SPIRITUAL IMPACT OF TRADITIONAL SOUND EXERCISES ON THE MINDS OF STUDENTS //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – Т. 3. – №. 3. – С. 318-321.
9. Ramazonova O. K., Shukurov M. HISTORICAL DEVELOPMENT OF STATUS //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – Т. 3. – №. 02. – С. 447-452.
10. Ramazonova, O. K., & qizi Mustaqimova, G. G. (2022). Formation and Development of



- National Musical Traditions. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 2(1), 336-339.
11. Raxmatova, M. O., & qizi Aslonova, N. I. (2022). Today's Makom Traditions Spiritual Significance. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 2(1), 340-342.
 12. Рамазонова, Угиллой Холмуродовна, and Окила Мукимовна Сайфуллаева. "Развитие чувства ритма у детей." *Проблемы науки* 1 (60) (2021): 49-51.
 13. Рамазонова, У. Х., & Эсанова, М. Ж. (2021). ПОДГОТОВКА МОЛОДЫХ ПЕВЦОВ К АНСАМБЛЕВОМУ ВЫСТУПЛЕНИЮ. *Наука, техника и образование*, (2-1 (77)), 88-91.
 14. Рамазонова, Ў. Х. (2021). ТАЛАБАЛАРДА МАЪНАВИЙ-АХЛОҚИЙ ТУШУНЧАЛАРНИ ШАКЛЛАНТИРИШ, ГУРУҲ БИЛАН ИШЛАШ ВА УНИ БОШҚАРИШ ТАМОЙИЛЛАРИ. *Scientific progress*, 1(5).
 15. Рамазанова, У. Х., & Рахматова, М. О. (2020). SOCIAL NORMS, SANCTIONS AND PERSONALITY. *Вестник науки и образования*, (21-2), 115-118.
 16. Rakhmatova, M. O., & Saidahmadova, S. J. Q. (2022). SOME ISSUES OF SINGING TEACHING. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(02), 782-786.
 17. Рамазонова, У. Х. (2021). Эсанова Махлиё Жамиловна Подготовка Молодых Певцов К Ансамблевому Выступлению.
 18. Рахматова, М. О., & Шодиева, Г. А. К. (2021). Музыкальное образование по методике уорда (Ward). *Проблемы науки*, (1 (60)), 52-54.
 19. Рузиев Д. Ю. ПРОЕКТИРОВАНИЕ ПРОЦЕССА ОБУЧЕНИЯ МУЗЫКАЛЬНЫМ ПРОИЗВЕДЕНИЯМ В АНСАМБЛЕ //Наука, техника и образование. – 2021. – №. 2-1 (77). – С. 58-61.
 20. Ruziev D. Y. The Emergence of New Forms of Musical Ensembles in Uzbekistan //EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION. – 2022. – Т. 2. – №. 1. – С. 343-346.
 21. Kholmurodovna, R. U., & Obidovna, R. M. (2020). Social norms, sanctions and personality. *Вестник науки и образования*, (21-2 (99)), 115-118.
 22. Ramazonova, U. H., & Muhamadova, M. (2022). THE SPIRITUAL IMPACT OF TRADITIONAL SOUND EXERCISES ON THE MINDS OF STUDENTS. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(3), 318-321.
 23. Ramazonova, U. X., & Esanova, M. J. (2022). An'anaviy xonandalik rivojida maqomlarning o'rni. *Science and Education*, 3(1), 496-501.
 24. Kholmurodovna U. R. FORMATION OF PUBLICISTIC PERFORMING SKILLS IN SINGING //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2021. – Т. 1. – №. 01. – С. 36-40.
 25. Formation and Development of National Musical Traditions
 26. Ogiloy Kholmurodovna Ramazonova, Gulasal Golibjon qizi Mustaqimova EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION 336-339 bet.
 27. An'anaviy xonandalik rivojida maqomlarning o'rni. Ugiloy Xolmurodovna Ramazonova, Maxliyo Jamilovna Esanova Science and Education.496-501 bet.